SAMARQAND VILOYATIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK VA G'ALLACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Eshkulova Gulmira Shokirovna
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Tarix kafedrasi o'qituvchisi
eshkulovagulmira531@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23129545

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston qishloq xo'jaligida paxta va g'alla klasterlarining joriy etilishi hamda ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi tahlil qilingan. Klaster tizimi xomashyoni chala va chuqur qayta ishlash darajasini oshirish hamda tayyor, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, maqolada qishloq hududlarida norasmiy bandlik darajasini pasaytirish, kichik sanoat shaharchalarini barpo etish hamda maxsus kasb-hunar markazlari orqali kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Paxta va g'alla klasterlari, chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot, norasmiy bandlik, kichik sanoat shaharchalari, kasb-hunar markazlari, kadrlar salohiyati.

Аннотация. В данном тезисе, анализируется внедрение хлопково-текстильных и зерновых кластеров в сельском хозяйстве Узбекистана, а также их экономическая и социальная эффективность. Кластерная система выступает ключевым фактором повышения уровня первичной и глубокой переработки сырья, а также расширения объемов производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью. Кроме того, в исследовании сформулированы практические рекомендации, направленные на сокращение неформальной занятости в сельской местности, создание малых промышленных городков и развитие кадрового потенциала через центры профессиональной подготовки.

Ключевые слова: хлопково-зерновые кластеры, глубокая переработка, готовая продукция, неформальная занятость, малые промышленные городки, профессионально-технические центры, кадровый потенциал.

Abstract. In this paper the implementation of cotton and grain clusters in the agricultural sector of Uzbekistan and evaluates their economic and social impact. The cluster model serves as a driver for increasing primary and deep processing of raw materials, thereby expanding the production volume of value-added finished goods. Furthermore, the paper provides actionable recommendations aimed at reducing informal employment in rural areas, establishing small industrial zones, and enhancing human resource potential through vocational training centers.

Keywords: cotton and grain clusters, deep processing, finished products, informal employment, small industrial towns, vocational training centers, human resource capacity.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Kirish. Respublikada qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmuini modernizatsiya qilish, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'liq o'tkazish hamda mahsulot yetishtirishdan to tayyor tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan zanjirni shakllantirishda klaster tizimi yetakchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevraldagi qishloq xo'jaligida klasterlar faoliyatini yanada rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida ta'kidlanganidek, agrosanoat majmuida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi qiymat zanjirini yaratish milliy iqtisodiyotimizning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

2020-yilning 4-fevral kuni Prezidentimiz qishloq xo'jaligida klasterlar faoliyatini yanada rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazib, milliy xo'jaligimizda klasterlar faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha muhim masalalarni ko'ndalang qo'ydi va bugungi kunda O'zbekistonda mazkur yo'nalishlar bo'yicha bir qancha islohotlar amalga oshirilib, muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda, bir qancha agrosanoat klasterlari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yilib, klasterlarga ajratilgan qishloq xo'jaligi maydonlarining hajmi ekin turlari bo'yicha paxta-to'qimachilikda 67 foizni, chorvachilikda 8 foizni, meva-sabzavotchilikda 7,5 foizni tashkil etadi. [1]

Samarqand viloyatida jami tashkil etilgan klasterlar soni respublikadagi klasterlarning 10.3 foiziga to`g'ri keladi. Respublikamiz qishloq xo'jaligida Samarqand viloyati o'zining ulkan salohiyati bilan alohida ahamiyatlidir. Hududning o'ziga xos jihati, barcha turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish imkoniyatining mavjudligidir. Hozirgi kunda Samarqand viloyatida 10 ta paxta to`qimachilik klasterlari, 20 ta g`allachilik klasterlari va 15 ta meva sabzavotchilik klasterlari tashkil qilingan. Paxta to`qimachilik klasterlariga viloyatda umumiy biriktirilgan yer maydoni 75356 gektarni, shundan klasterlarda 9697 gektar, qolgani 2074 ta fermer xo`jaliklarga 65659 gektar yer maydoni to`g`ri kelmoqda. 2022-yilda bu klasterlarga va fermer xo`jaliklariga biriktirilgan yer maydonlarida 301315 tonna paxta xom ashyosi yetishtirilgan. Bulardan klasterlar tomonidan 39516 tonna fermer xo`jaliklar tomonidan esa 261799 tonna paxta yetishtirilgan. O`rtacha hosildorlik gektariga 40 sentnerni tashkil qilmoqda. Klasterlarda bu ko`rsatkich gektariga 42 sentnerni, fermer xo`jaliklarida 38.2 sentner tog`ri kelmoqda. [2]

Viloyatida paxta to`qimachilik klasterlarini tashkil etishda Kattaqo`rg`on, Payariq, Pastdarg`om, Narpay tumanlarining ulushi yuqori. Tashkil etilgan klaster bir qancha faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Har bir faoliyat turi keyingilari bilan bevosita bog'liq hamda bir-birini to'ldirib boradi. G`allachilik klasterlariga esa biriktirilgan yer maydoni 94079,6 gektarni, shundan klasterlarga 1758,6 gektar, 4484 ta fermer xo`jaliklarga 92321 gektar yer maydonlari tog`ri keladi. Gallachilik klasterlari Ishtixon, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg`om tumanlarida yaxshi yo`lga qo`yilgan. Viloyatda mavjud meva-sabzavotchilik yer maydonlari 52268 gektar, biriktirilgan jami yer maydoni 23157 gektar, shundan klasterlarda 2895 gektarni, 2759 ta fermer xo`jaliklarga 20262 gektar yer maydonlari to`g`ri kelmoqda. Viloyatda mavjud meva-sabzavotchilik yer maydoniga nisbatan qamrab olinish 44% ni tashkil etmoqda. Meva sabzavotchilik klasterlarida Bulung`ur, Urgut, Samarqand, Tayloq tumanlarining ulushi yuqori. [1]

Klasterda faoliyat turlarining kengayib tarmoqlanib borishi, birinchi navbatda yangi ish o'rinlarini yaratilishiga olib keladi. Ularning yana bir e'tiborli tomoni, har bir tashkil etilgan faoliyat turi yangilarini tashkil etishga sabab bo'ladi. Bu jarayon esa bevosita uning faoliyatini yanada kengayib borishiga olib keladi. Klasterlar faoliyatining kengayib borishi uning daromadlari bilan birga imkoniyatlarini ham oshiradi.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Qishloq hududlarida mehnatga layoqatli aholining norasmiy ish bilan bandligini kamaytirish uchun samarali faoliyat ko‘rsatayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlarini doimiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, har bir tumanda qishloq xo‘jalik ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda boshqa turdagi klasterlarni ham tashkil qilish mumkin. Agar hududlarning imkoniyatlari to‘g‘ri baholanib tashkil qilinsa, o‘rganilayotgan mintaqaning qishloq xo‘jaligida klasterlarning barcha turlarini tashkil etish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud.

Klasterlar tashkil etish imkoniyatlari yuqori bo‘lgan qishloq, o‘rmon, baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari umumiy xajmi respublika hududlari kesimida Samarqand 12,9 foizni tashkil etadi. Shuningdek, yetishtirilgan don mahsulotlarini 10 foizini beradi. Bundan tashqari respublikada yetishtirilgan sabzavot va poliz mahsulotlari, mevva rezavorlar hamda uzum hosilining ham katta qismi viloyat hissasiga to’g‘ri keladi. Yuqorida keltirilgan statistik ko‘rsatkichlarning respublikadagi ulushi bo‘yicha boshqa viloyatlarga qaraganda Samarqand yuqori o‘rinlarni egallaydi. Shu bilan birga o‘rganilayotgan hududning ayrim tumanlari chovachilik mahsulotlarini hajmi bo‘yicha ham respublikadagi yetakchi tumanlardandir.[3] Shu bois, viloyatning mavjud agrar salohiyati, hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining yuqoriligi hamda ularni qayta ishlash imkoniyatlaridan kelib chiqib, Samarqand viloyatida meva-sabzavotchilik klasterlari tizimini joriy etish va rivojlantirish muhim istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Samarqand viloyatining tog‘ va tog‘ oldi tumanlarining o‘rmon xo‘jaliklarida dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi klasterlarni tashkil etish imkoniyatlari yetarli darajada hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, mintaqaning tog‘li hududlarida dorivor o‘simliklar yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlarini tashkil etish zarur. Bunday dorivor o‘simliklar klasterlarini tashkil etishda iqtisodiy jihatdan barqaror faoliyat yuritayotgan, zaruriy infratuzilma ob’ektlari, tuproq-iqlim sharoitlari, suv ta’minoti, ichki va tashqi bozorlardagi talablarini inobatga olgan holda dorivor va ziravor o‘simliklar joylashtirishga mos yer maydonlari ajratilishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Ushbu mintaqada klasterlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali paxta-to‘qimachilik, g‘allachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, ipakchilik, baliqchilik, dorivor o‘simliklar va agroturizm klasterlari va kooperativlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish va ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zaruriy-moddiy texnik, moliyaviy, boshqa ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish resurslari bilan ta’minlash, mehnatga layoqatli aholini norasmiy ish bilan bandligini kamaytirishga bevosita va samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi faoliyat turlarini rivojlantirish, birinchidan, hududlarda agrosanoat klasterlarini samarali tashkil etish orqali istiqbolda iqtisodiyotning bu tarmog‘ida ish bilan bandlar ulushini oshirishga va ishsizlik darajasini kamayishga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, to‘qimachilik korxonalari qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun investitsiya kiritadi. Natijada paxta tolasini qayta ishlash darajasi oshib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘lami kengayadi.

Uchinchidan, klasterlar o‘z tarkibida yangidan-yangi korxonalarni barpo etish orqali agrosanoatni rivojlantirish, modernizatsiya qilish, mahsulotlarning sifat darajasini ko‘tarish orqali o‘zining iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini oshiradi. To‘rtinchidan, hududlarda klasterlar faoliyati turlarini yurituvchi zamonaviy ishlab chiqarish sohalarida ish olib boruvchi mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar markazlari tashkil etiladi. Beshinchidan, agrosanoat klasterlarini rivojlantirish orqali kichik sanaot shaharchalarini barpo qilish imkoniyatlari oshadi.[4]

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida agrosanoat majmuini modernizatsiya qilish, xomashyo yetishtirishdan to tayyor, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan yag‘ona

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qiymat zanjirini yaratishda klaster tizimi asosiy lokomotiv vazifasini o'tamoqda. Samarqand viloyati respublika bo'yicha mavjud klasterlarning 10,3 foiziga egalik qilishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 12,9 foizini yetishtirishi bilan ushbu islohotlarning strategik markazlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot va tahlillar natijasida quyidagi asosiy iqtisodiy-ijtimoiy va tashkiliy ko'rsatkichlar hamda istiqbolli yo'nalishlar aniqlandi: Viloyatda paxta-to'qimachilik klasterlariga ajratilgan yerlarda o'rtacha hosildorlik 40 sentner/gani tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich klasterlarning o'zida 42 sentner/gaga yetgan (fermer xo'jaliklarida 38,2 sentner/ga). Bu klaster tizimida zamonaviy agrotexnologiyalar va resurs tejovchi usullarning samarali joriy etilganligini ko'rsatadi. G'allachilik klasterlari (Ishtixon, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg'om) 94 ming gektardan ortiq maydonni qamrab olgan. Meva-sabzavotchilikda esa mavjud yerlarning 44 foizi (23 157 ga) klasterlarga biriktirilgan bo'lib, Bulung'ur, Urgut, Samarqand va Tayloq tumanlari yuqori ulushga ega.

Klasterlar tarkibida xomashyoni chuqur qayta ishlovchi yangi quvvatlarning ishga tushirilishi qishloq joylarida doimiy va rasmiy ish o'rinlari yaratadi hamda yashirin (norasmiy) bandlik darajasini keskin pasaytiradi. Klasterlar atrofida zamonaviy ishlab chiqarish sohasi mutaxassislarini tayyorlovchi maxsus kasb-hunar markazlari hamda hududiy kichik sanoat shaharchalarini barpo etish imkoniyati kengaymoqda.

Samarqandning tog' va tog'oldi tumanlari o'rmon xo'jaliklarida dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash hamda chuqur qayta ishlash klasterlarini tashkil etish uchun zarur infratuzilma, tuproq-iqlim va suv resurslarini inobatga olgan holda maxsus yer maydonlarini ajratish zarur. Paxta va g'alladan tashqari chorvachilik, ipakchilik, baliqchilik, agroturizm va meva-sabzavotchilik klasterlari va kooperatsiyalariga investitsiyalarni ko'paytirish orqali hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlash lozim.

Fermer xo'jaliklarida hosildorlikni klasterlar darajasiga (42 sentner/ga va undan yuqori) yetkazish uchun innovatsion texnologiyalar transferini va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etiladi. Samarqand viloyatida klaster modelining kengaytirilishi nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini oshiradi, balki hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini yuksaltirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аграр соҳадаги ислоҳотлар – кластер тизимига ўтиш, ерларни хусусийлаштириш ва фермерлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги маъруза тезислари, 2021 // https:// www.tfqm. uz/analytics / index.php?page=post&id=7https://regulateon.gov.uz/uz%20/documents/2104
2. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi (Statistik to'plam). – Samarqand, 2023. – B. 45-48.
3. Федорко В.Н. Ўзбекистонда табиатдан фойдаланишнинг ҳудудий таркибини такомиллаштиришнинг иқтисодий-географик асослари. – г.ф.ф.д. дисс. автореферати. –Т.: ЎзМУ, 2018. – б.52 б.
4. Ibragimov L.I., Shokirova G.S., Toshboyeva M. Sh. Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishni geografik baholash // Tog' va tekislik landshaftlari barqaror rivojlanishining geografik asoslari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Samarqand: SamDU nashri, 2023. – B. 142–146.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.